

MATEMATIKADA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING MOHIYATI VA UNING TURLARI

O'ktamova Ferangiz Shuhratovna

Buxoro pedagogika instituti

"Matematika va informatika" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada matematikada sinfdan tashqari ishlar mohiyati va turlari ko'rsatilgan. Matematik tadbirda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, sinf, ekskursiya, rebus, dars, olimpiada, to'garak, ertak, tadbir, olim, aniq, misol, o'quvchi, o'qituvchi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning mohiyati

O'qitish shakli - bu o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfdan, ishlab chiqarishda va hokazo) o'tkazilishiga muvofiq ravishda o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy o'qitish jarayonida foydalaniladigan qilib tashkil etilishidir.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o'quvchilarning yakka tartibda, guruh va jamoa bo'lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni echishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi: Matematik to'garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish. Matematikadan sinfdan tashqari ishlar deganda o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish, matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash. Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan ma'lumotlari etishmaydigan yoki berilgan ma'lumotlari ortiqcha masalalar, mantifiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar tarixiy ma'lumotlar berish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish; matematikaga qiziqishlarini orttirish, matematikaga qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlikni, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylik xislatlarini tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O'z mazmuni bo'yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bo'lishi kerak.

2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqtirishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida aktiv o'quvchilarga aylanishi mumkin.

3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik prinsipiga asosan quriladi. Lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

5. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli-tumanligi. Quyida sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish rejasiga oid tadbirlar rejasini keltiramiz.

Matematika fanidan sinfdan tashqari tadbirlar

No	Tadbir shakli	Tadbir mavzusi	Tadbir maqsadi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
1	Matematik o'yinlar	Sehrli kvadrat	Tez va aniq hisoblash	O'yinni boshqarish, o'quvchilar ni qiziqtirish va sehrli kvadrat tarixi bilan tanishtirish	Mantiqiy fikrlash
2	Qiziqarli matematik soatlar	Rebuslar, fokuslar, Krossvord	Matematika darslarida olingan bilimlarni chuqurlashtirish	Turli rebuslarni, krossvordlar ni tayyorlash	Rebuslar va krossvordlar ni topish

3	Matematik viktorina	Hamma narsalarni bilishni istayman	Murakkab masalalar	Turli murakkab masalalarni tayyorlash va viktorinani boshqarish	Hamma masalalarni bilishga intiladilar
4	Matematik a Ertaligi	Tarixiy masalalar	Tarixiy misollarni o'rganish	Misollarni tayyorlash va ertaliklarni boshqarish. Tarixiy misollarga qiziqtirishga o'rgatish	Misollarni yechishga harakat qilish
5	Matematik to'garaklar	Mashhur matematik olimlarning hayoti va faoliyati	Olimlarning matematikaga qo'shgan hissasi, matematika tarixini chuqur o'rganish	Matematika to'garagini boshqarish va senariy yozish	Tarixiy materiallar to'plami
6	Devoriy gazeta	Qiziqarli tarixiy hikoyalar, olimlarning ijodi va hayotidan yangiliklar	O'quvchilarning dunyoqarashi ni shakllantirish ga erishish	Devoriy gazeta uchun material to'plash	Devoriy gazetalarni chiqarish va tarixiy materiallarni o'rganish
7	Ekskursiya	Tarixiy muzeylarga sayohatlarga olib borish	Milliy grafika, Geometrik shakllar bilan tanishtirish	Ekskursiya jarayonida tarixiy materiallar bilan tanishtirish	Matematikadan yangi bilimlarga ega bo'lish

Xulosa qilib aytganda, matematikadan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar matematikani faqat nazariy fan sifatida emas, balki kundalik hayot bilan bog'langan amaliy fan sifatida o'rgatishga yordam beradi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, masalalarni hal qilish qobiliyati va mustaqil o'rganish ko'nikmalari ortadi. Shuningdek, jamoaviy ish va muloqot ko'nikmalari shakllanadi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Yu uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2016 yil. 426 b.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.
3. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Yu uchun o'quv q o'llanma) Toshkent. "O'qituvchi", 2004 yil.
4. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (OO'Yu uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2006 yil.
5. Matematika soxasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.
6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамыз. "Ўзбекистон", 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги - инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон", 2017.
8. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. Matematika (1-11sinf). 2021. Respublika ta'lim markazi.
9. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Yu uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2016 yil. 426 b.
10. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Yu uchun o'quv q o'llanma) Toshkent. "O'qituvchi", 2004 yil.
11. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (OO'Yu uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2006 yil.
12. Jumayeva H.M. Talabalarni globallashtirish jarayonida ichki tahdidlardan himoyalash texnologiyasini takomillashtirish. Ped.fan.fal.dok.(PhD). Diss. Termiz. 2022.
13. Azlarov T., Monsurov X Matematik analiz. -T.: «O'qituvchi». 1986.
14. Algebra va analiz asoslari: o'rta maktablarning 10-11 sinflari uchun darslik (Sh.O. Alimov, Yu.M.Kolyagin, Yu.V.Sidorov, M.I.Shabunin) T., «O'qituvchi», 1996 va uning keyingi nashrlari.
15. Alixonov S. «Geometriya darslarida umimlashtirish» T., «O'qituvchi», 1989.
16. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». t., «O'qituvchi» 1992.
17. Alixonov S. ~Matematika o'qitish metodikasi» Qayta ishlangan II nashri.
18. T., «O'qituvchi» 1997 va boshqalar elementar matematikadan masalalar.

19. Antonov K. P. To'plam. «O'qituvchi», 1975.
20. Bikboyeva N. U. va boshqalar «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi», T., «O'qituvchi», 1996.
21. G'aybullayev N., Ortiqov. «Geometriya 7-sinf uchun darslik» T. «O'qituvchi», 1998.
22. G'aybullayev N., Ortiqov. «Geometriya 8-sinf uchun darslik» T. «O'qituvchi», 1999.
23. Galitskiy M.A. va boshqalar «Algebra va matematik analiz kursini chuqur o'rganish» T., «O'qituvchi», 1995

